

## **INDIVIDUAL YONDASHUVI ASOSIDA TALABALARDA LOYIHALASH-KONSTRUKSIYALASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI**

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti “Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi.  
Qodirov Najmuddin Elmira o‘g‘li*

**Anatatsiya:** O‘qitish tamoyillari ta’lim tizimi oldidagi buyurtmalariga mos kelishi, shuningdek, jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy - ma’rifiy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirib yangilanib, o‘zgarib, rivojlanib, o‘zgacha ahamiyat kasb etadigan jarayondir.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, tarbiya, individual yondoshish, Individuallashtirish tamoyili, mazmun, tamoyillar, o‘quv jarayonini tashkil etish.

Ta’lim jarayonida individual yondashuvi asosida talabalarda loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyasini rivojlantirishda belgilangan topshiriq va vazifalarni tizimli tahlil qilish, talabalarning individual faoliyatini ta’minalash va talabalar individual faoliyati uchun fanning metodologik ta’minotini ishlab chiqishning pedagogik va didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqishdan iborat. Bunda o‘qituvchilardan har bir talabaga individual yondoshish va talabani individual ta’lim olishga yo‘naltirish talab etiladi.

Individual yondashuvi asosida talabalarda loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik va didaktik shart-sharoitlariga to‘xtalib o‘tishdan oldin talabalarning loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyasini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ta’lim tamoyillariga to‘xtalib o‘tsak.

O‘qitish tamoyillari negizida o‘qitish qonunlari va qonuniyatları yotadi. O‘qitish qonunlari va qonuniyatları o‘qitish tamoyilining nazariy asoslarini ishlab chiqishga va pedagogik faoliyat amaliyotiga qo‘llashga zamin tayyorlaydi. Shuni qayd etish lozimki, o‘qitish qonunlari va qonuniyatları hozirgi kunda kredit-modul tizimining oldiga qo‘yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmalar, jamiyatning ijtimoiy hayotidagi, ta’lim jarayonining maqsadi va vazifalari, fanning rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq holda o‘zgarib, yangilanib turadi.

O‘qitish tamoyillari ta’lim tizimi oldidagi buyurtmalariga mos kelishi, shuningdek, jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy - ma’rifiy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirib yangilanib, o‘zgarib, rivojlanib, o‘zgacha ahamiyat kasb etadigan jarayondir.

Kredit-modul tizimi jarayonida talabalarning individual faoliyatini tashkil etishning mazmunini shakllantirish an’anaviy ta’lim tizimidagi kabi ta’lim mazmunini

tashkil etishning tanlangan nazariyasiga asoslanadi va tegishli tamoyillarni hisobga oladi.

Ta’lim tamoyillari – bu pedagogik jarayon ishtirokchilarining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatlarini belgilovchi asosiy qoidalar tizimidir.

Shulardan kelib chiqqan holatda biz taqiqot ishimizda quyidagi **individuallashtirish, motivatsion (qiziqishni uyg‘otish), tizimlilik, integrativlik, ilmiylik, kasbiy ta’lim darajasini bo‘linish, ta’limning ko‘ptarmoqliligi, alohidalik va pog‘onalilik, bashorat (prognostik) va mustaqillik** tamoyillaridan keng foydalandik. Quyida ularni mazmuniga to‘xtadib o‘tamiz.

**Individuallashtirish tamoyili.** Ushbu tamoyilning asosiy jihatni har bir talabaning individual tarbiyaviy ish uslubini, uning shaxsiy rivojlanishining o‘ziga xos trayektoriyasini va ruhiy jarayonlarning ishlash xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Shunda dasturning har bir ishtirokchisining individual natijasi, shaxsiy xususiyatlar sifatida kreativlikning shakllanish darajasiga mos keladigan ijodiy yutug‘i bo‘ladi.

**Motivatsion (qiziqishni uyg‘otish) tamoyil.** Bu tamoyilning mohiyati, talabaning individual o‘quv-bilim olish faoliyatini rag‘batlantirishdan iborat b‘lib, bu asosiy qoidadir. Talabada o‘quv materialiga qiziqishni uyg‘otish, bilim olishga rag‘batlantirish, mashg‘ulotlar paytida faol ijodiy fikrlashga da’vat etish muammoli vazifalardan biri hisoblanadi.

**Tizimlilik tamoyili** - talabalar o‘zalashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikmalarni tizimli bayon qilish – yangi bilim, ko‘nikmalarni ilgari o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalar bilan bog‘lash shu orqali talabalarning tushuncha va tasavvurlari doirasini kengaytirish hamda chuqurlashtirish, talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish dasturini tizimli ravishda ifodalash bilan talabalarni kasbiy rivojlantirishdan iboratdir. Tizimli yondashuv zamirida oddiydan murakkabga, eskidan yangiga, bilimdan ko‘nikmaga, ko‘nikmadan esa malakaga qarab tizimli ravishda harakat yotadi.

**Integrativlik tamoyili**- turli fanlardan olingan bilimlar, ko‘nikma, malaka va tajribani hisobga olish, ta’lim mazmunini egiluvchanligini ta’minalash, tayanish, integratsiya qilish, kasbiy kommunikativ, ijtimoiy kompetentlikni baravar rivojlantirishni eng qulay sharoitini yaratishni nazarda tutadi.

Integrativlik va fanlararo munosabat, bu mazmun, texnologiyalar darajasida fanlarning integratsiyasiga mo‘ljallangan, shuningdek, ularning bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy faoliyati bilan aloqasini ta’minalaydi.

Shuningdek integrativlik tamoyili turli ilmiy sohalar materialini integratsiya qilish sharoitida bilimlarni yaxlit idrok qilishga, fanlararo bog‘lanishlar va aloqalarning mavjudligiga yo‘naltirilgan. “Integratsiya qismlarini biror butungina birlashtirishni nazarda tutadi”. Pedagogik integratsiyani biz maqsadlar, mazmun, tamoyillar, o‘quv jarayonini tashkil etish shakllarini birlashtirish jarayoni tarzida,

shuningdek o‘quv jarayoni komponentlarining o‘zaro ta’sirlashuvida yirik modullarining yaratilishi sifatida qaraymiz.

**Ilmiylik tamoyili** - talabalarga o‘rganish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko‘rilgan ma’lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng yangi yutuqlariva kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Ilmiy bilimlarni egallahash jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o‘qitiladigan o‘quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqr bo‘lishi va talabada nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishni hamda talabaning individual ta’limiy faoliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo‘lishi lozim. Talaba o‘rganayotgan bilimlar albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo‘lishi kerak.

**Kasbiy ta’lim darajasini bo‘linish tamoyili.** Uning mohiyati shundaki, ta’lim davrini ikkita bosqichga bo‘lish maqsadga muvofiq. Birinchisi vaqt o‘tishi bilan eskirmaydigan va umuman olganda kasbiy tayyorgarlikning asosini tashkil qiluvchi fundamental bilimlarni egallahsga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Ikkinchisi, kasbiy tayyorgarlik deb nomlangan bosqich “bitiruvchini mutaxassis darajasiga etkazish va kelgusi faoliyatga moslashtirishning birinchi pog‘onasi”ni o‘z ichiga olgan bosqich bo‘lib, u “jamiyat va texnologiyalar o‘zgarib ulgurmeydigan” nisbatan qisqa muddatli vaqtini o‘z ichiga olishi zarur.

**Ta’limning ko‘ptarmoqliligi tamoyili** ta’lim jarayonida qo‘srimcha ixtisoslikni egallah imkoniyatini nazarda tutadi. Bu esa kon’yukturaning o‘zgarishi sharoitida mutaxassisni ehtirot qilish va ta’lim yo‘nalishlarining ko‘pqirraligiga erishish uchun muhimdir.

**Alohidalik va pog‘onalilik tamoyili** – talabalar individual faoliyatida sezilarli salmoqqa ega. Buni talabalar bilimi, fikrlash layoqati, qobiliyati kabi sifatlar mutlaqo bir-biriga mos kelmasligi va ularga berilayotgan ijodkorlik masalasi ham alohida murakkablikda va asta-sekin o‘sib borishini taqozo qilishi bilan izohlash mumkin.

**Bashorat (prognostik) qilish** - tamoyili kasb ta’limi o‘qituvchilarini tadqiqotchilik faoliyatga innovatsion jarayonlarning kasb ta’limi, ishlab chiqarish, texnika, texnologiya, iqtisodiyot, boshqaruv va boshqa sohalarga rivojlanish dinamikasini hisobga olib, ularning ilgarilab boruvchi mazmuni asosida tayyorlashni ko‘zda tutadi. Bunda, tadqiqotchilik faoliyatga tayyorlashning prognostik maqsadi sifatida nostandard muammoli vaziyatlarda echim va harakatlarni qabul qilishga mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni qo’llashga tayyorlikni shakllantirishda ishtirok etadi.

**Mustaqillik tamoyili** – bu talabalar individual faoliyatida o‘ta muhim hisoblanadi. Mustaqillikning muhim tashkil etuvchisi fikrlashning yuqori darajada bo‘lishini ta’minalash individual tarzda o‘z-o‘zini rivojlantirish faoliyatini asta-sekin

murakkablashtirib borishni taqozo etadi. Talabaning mustaqilligi va faolligi o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchadir. Bu bog‘lanishda-faollik talabaning ijodkorlik ish bilan shug‘ullanishga bo‘lgan qizg‘in ishtiyoqini ifodalasa, mustaqillik, faollikning yuqori pog‘onasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogikada “shart-sharoitlar” - deganda pedagogik tizimi ishslash samaradorligiga bog‘liq omillar, holatlar tushuniladi. Zamonaviy didaktikada “shart-sharoit” tushunchasi o‘qitishning muvafaqiyatligini ta’minlovchi omillar, komponentlar yig‘indisi – deb izohlagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki didaktik shart-sharoit – deganda o‘quv jarayonning muhim komponenti tushuniladi, u o‘zida qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan, o‘quv jarayonning ma’lum o‘lchovlari yig‘indisini bir butun holatda umumlashtiradi.

Ta’lim jarayonida o‘qitishning maqsadi - ob’ektiv voqelikni yetarli darajada aks ettiruvchi, faoliyat ko‘rsatuvchi, o‘zini-o‘zirivojlantiruvchi individual faoliyatni shakllantirish har bir talabaning shaxsiy maqsadiga aylanadi. O‘quv jarayonida talabalarning individual faoliyatini shakllantirish ishlari har bir talabaning ongida bajarilishi kerak va uni boshqa hech kim bajara olmaydi. Lekin bu ish o‘ta murakkab va talabadan ko‘p energiya talab qiladi. Shuning uchun uning muvaffaqiyati malakali o‘qituvchining yordamini talab qiladi.

Ta’lim jarayonida individual yondashuvi asosida talabalarda loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyasini rivojlantirishda **bir necha o‘qituvchilar jamoa ishtirok etadi. Talabalar individual faoliyatini tashkil etishda ularning qiziqishlari, xohish-istiklari va kasbga bo‘lgan munosabatlarini aniqlashning imkonini beradigan quyidagi xususiyatlari pedagogik tajribalarda alohida e’tirof etiladi.**

**1. Yakka tartibda shug‘ullanish xususiyati.** **Bunda har bir talabaga davlat ta’lim standartlari va malaka talabalaridan kelib chiqib maxsus yondashiladi.** Bundan asosiy maqsad talabalarning ta’lim doir huquqlarini jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan ro‘yobga chiqarish va talabaning bilim va ko‘nikmalarini kutilgan darajada tarkib toptirish imkoniyatlarini beradi.

**2. O‘ziga xoslik xususiyati.** Bu xususiyat talaba bilan istalgan vaqtida va muddatsiz shug‘ullanish bilan belgilanadi. Unda talabaning imkoniyatlaridan kelib chiqilib nazariy, amaliy va metodik mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Bunda mashg‘ulotlarning shakli rang-barang bo‘lishiga e’tibor qaratilish, qaysi mashg‘ulot shakli amaliy samara bersa, shu mashg‘ulot turi tanlanadi, shu bilan birga o‘qituvchining ham faol bo‘lishi, o‘quv materiallarini avvaldan va yangi ma’lumotlar asosida tayyorlashi, ularni talabalarga o‘z vaqtidav yetkazishi hamda talabalarning o‘zlashtirish darajasini nazorat qilib borishi muhim hisoblanadi.

Shu sababli keyingi paytlarda darsliklarning elektron shakllariga va ularning imkoniyatlariga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

**3. Amaliylik xususiyati.** Bunda pedagogik va psixologik metodlarning keng hamda uyg'un qo'llanishi bilan belgilanadi. Pedagogik metodlarning tushuntirish, izohlash, sharplash va yo'naltirish kabi xususiy metodlari talabalarning individual faoliyatini tashkil etishning amaliylik jihatlarini belgilaydi. Psixologik metodlarning ishontirish, ruhiy ko'niktirish, murakkab holatlardan chiqib ketishga yo'naltirish kabi xususiy metodlari amaliy omillaridan hisoblanadi. [68].

Ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlili va o'zimizning pedagogik amaliyotimiz talabalarning individual faoliyatini tashkil etish va o'tkazishda odatiy qiyinchiliklarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

*Pedogog duch keladigan qiyinchiliklar:*

- O'quv materiallarining hajmi katta bo'lganligi sabali talabalarga didaktik materialarni tizimli va tartibli uzatishda yuzaga keladigan muammolar;
- didaktik muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun individual yondashuvi asosida talabalarda loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyasini rivojlantirishning mos shakllari va usullarini yaratish uchun nihoyatda katta hajmdagi ishlarni amalga oshirish;
- ta'lim tizimining mazmuni, ma'nosи, maqsadlari, vazifalari, shaxsiy natijalarini monitoring qilish va baholash tizimidan kelib chiqqan holda o'qitishning sur'ati, shakllari va usullarini tanlash
- individual yondashuvi asosida talabalarda loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari, ta'lim maqsadlari va natijalarini belgilash uchun talabaning qiziqishlari va ta'lim talablari asosida uning barcha.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Talipov N.X., & Aliev N.S. (2021). The importance of perspective in teaching artto future fine arts teachers. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(2). –PP. 97–103.2. Djumaevich K.K., & Toshkuvatovich D.S. (2021). The book of principle of humanspecialist. Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – PP. 7077–7088.
2. Pardaboyev O'. A. Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning individual ishlashini takomillashtirish usullarini o'rgatish. "Ilm-fan, madaniyat va texnologiyalarning zamонави yutuqlari xamda ularning iqtisodiyotga tatbiqi". B 1445-1449. Andijon shahri. 28 iyun 2022 yil. Xalqaro ilmiy konferensiya.
3. Pardaboyev O'. A. Kredit-modul tizimni ta'lim jarayoniga qo'llash. O'zMU xabarları. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. 2022 yil. 5-son.. UDK.37.013.04 –B.128-129.

4. Pardaboyev O’A. Kredit modul tizimini ta’lim jarayoniga qo’llashning o’ziga xosligi. "Xotin qizlarning fan, ta’lim, madaniyat va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish sohasidagi yutuqlari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Jizzax shahri.-S.414-417 b.
5. Russell J.D. Modular Instruction. - Minneapolis, Minn., Burgest Publishing Co., 1974.
6. Болонский процесс: середина пути. Текст. / Под науч. ред. д-ра пед. наук, проф. В. И. Байденко. — М. : Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, Российский Новый Университет, 2005. 379 с
7. Owens G. The Modele in "Universities Quarterly"// Universities Quarterly, Higher education and society. - Vol. 25. - № 1.
8. [К.Н.Евгеньевна. Модульное обучение как педагогическая технология : Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01 : Тула, 2002 204 с. РГБ ОД, 61:03-13/763-4](#)
9. Ярочкина Г.В. к.п.н.,профессор. Модульно-компетентностный подход в проектировании учебных материалов проф. учрежений довузовского образования, 2006, с.48
- 10.Денисова А.Л., Пищелко А.В. Психолого-педагогические аспекты подготовки кадров работников ОВД на основе новых информационных технологий: Монография.- Домодедово: РИПК МВД России,1995.
- 11.Батышев С.Я. Блочно-модульное обучение - М., Транс-сервис, 1997. - 225 с.
- 12.Королькова Е.В. Педагогические условия индивидуализации самостоятельной работы студентов (На материале иностранного языка) : Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.08 : Барнаул, 2004 195 с. РГБ ОД, 61:04-13/2112
- 13.Коврова С.Е. Индивидуализация самостоятельной работы учащихся по информатике на основе использования средств телекоммуникаций : Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 : Москва, 2003 169 с. РГБ ОД, 61:03-13/2145-9
- 14.Царькова К.М. Индивидуализация самостоятельной работы студентов-заочников в процессе изучения педагогических дисциплин : диссертация ... кандидата педагогических наук : 13.00.08 / Царькова Кристина Михайловна; [Место защиты: Ярослав. гос. пед. ун-т им. К.Д. Ушинского].- Ярославль, 2013.- 196 с.: ил. РГБ ОД, 61 13-13/260
- 15.Врублевская Е.С. Индивидуализация содержания самостоятельной работы студентов как фактор развития их профессиональной компетентности: Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.08 : Челябинск, 2002 185 с. РГБ ОД, 61:02-13/1504
- 16.Murtazayev E. M., Abdiyev T. G. ORGANIZATION OF DISTANCE LEARNING USING MOBILE DEVICES IN THE LEARNING PROCESS.
- 17.Eshmurad M. et al. MECHANICS OF HYDRAULIC STRUCTURES //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – Т. 14. – № 6

- 18.Gulboyevich A. T. Use of hydro-engineering facilities and their safety of reliability. – 2022.
- 19.Qodirov N.E.“Individual yondashuv asosida talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetensiyalarini rivojlantirish-pedagogik muammo sifatida”, “Mug‘allim həm yzliksiz bilimlendirio”, 6/6-san 2023. 81-86 b. ISSN 2181-7138.(13.00.00: № 20).
- 20.Najmiddin Qodirov, “Individual yondashuvi asosida talabalarda loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyasini rivojlantirish metotikasini takomillashtirish”, “Xalq ta’limi”, 5-son 2024. 34-37 b. ISSN 2181-7839.(13.00.00: №